

XX ASRNING 50-YILLARDA ANDIJON OBLASTIDA YANGI YERLARNI O‘ZLASHTIRISH ISHLARINING OLIB BORILISHI

Abduraxman Gulomjon o‘g‘li TURGUNOV

mustaqil tadqiqotchi
Andijon davlat universiteti
Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish yillarida Andijon viloyatida yangi yerlarni o‘zlashtirish jarayonlari tarixiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Tayanch so‘zlar: irrigatsiya, paxta yakkahokimligi, oblast, sentner, gektar.

ПРОВЕДЕНИЕ РАБОТ ПО ОСВОЕНИЮ НОВЫХ ЗЕМЕЛЬ В АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ В 50-Е ГОДЫ XX-ГО ВЕКА

Абдурахман Гуломджон углы ТУРГУНОВ

Независимый исследователь
Андижанский государственный университет
Андижан, Узбекистан

Аннотация

В статье с исторической точки зрения проанализированы процессы освоения новых земель в Андижанской области в период восстановления после Второй мировой войны.

Ключевые слова: ирригация, хлопковая монополия, область, центнер, гектар.

Ikkinchi jahon urushi yakunlangach, dunyo iqtisodiyoti sezilarli ravishda tiklanish jarayoniga kirishdi, ayniqsa Sovet Ittifoqi o‘zining qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarini qayta tiklashga alohida e‘tibor qaratdi. Bu davrda O‘zbekistonning, xususan, Farg‘ona vodiysining ahamiyati yanada ortdi. Urushdan so‘ng, mintaqada amalga oshirilgan islohotlar va yer o‘zlashtirish tadbirlari qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Sovet hukumati Andijon oblastini qishloq xo‘jaligiga oid markaziy hududga aylantirishni maqsad qilib, bu yerda paxta etishtirish uchun yangi yerlarni o‘zlashtirish, mavjud yerlarning unumdorligini oshirish va sug‘orish tizimlarini o‘z davri uchun mos ravishda ekstensiv usullar yordamida modernizatsiya qilishga kirishdi.

Sovet siyosati doirasida o‘tkazilgan agrar islohotlar, ayniqsa paxta ekinlari maydonlarini kengaytirish uchun yangi yerlar o‘zlashtirishga yo‘naltirildi. Andijon oblastida bu jarayonlar maxsus mehnat resurslari va texnologiyalarni joriy etish

orqali amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar nafaqat qishloq xo'jaligini rivojlantirish, balki mintaqaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega bo'ldi, biroq bu mahalliy aholi vakillarining iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini keskin yaxshilash uchun yetarli bo'la olmadi. Chunki ushbu tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad - bu markazning ehtiyojlarini qondirishgagina qaratilgan edi.

Yangi yerlarni o'zlashtirish jarayoni, ayniqsa, sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish va ekinlarning hosildorligini yanada oshirishga xizmat qildi. Shuningdek, irrigatsiya tizimlarini yaxshilash, meliorativ chora-tadbirlar va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali yerning unumdorligi barqarorlashtirildi. Biroq irrigatsiya sohasiga bo'lgan e'tibor kengaytirilmagani oqibatida keyingi davrlarda vaziyat yomon tomonga o'zgardi. Bu davrda Andijon oblastida amalga oshirilgan o'zlashtirish tadbirlari, Farg'ona vodiysida umumiy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, paxta ekinlarini intensiv rivojlantirish, shu bilan birga yirik agrar hudud sifatida mintaqaning ro'yxatga olinishi kabi muhim iqtisodiy va ekologik natijalarga olib keldi. Xususan, paxta yetishtirishning yangi texnologiyalar bilan ta'minlanishi va yangi maydonlar o'zlashtirilishi, mintaqadagi qishloq xo'jalik tizimlarining yanada kuchayishiga, yirik ishlab chiqarish komplekslarining barpo bo'lishiga xizmat qildi. Biroq, bu jarayonlarning ekologik va ijtimoiy ta'sirini ham hisobga olish lozim, chunki yangi yerlarni o'zlashtirish va intensiv irrigatsiya tizimlarining joriy etilishi natijasida yerlarning sho'rlanishi va boshqa ekologik muammolar yuzaga kelganini ko'rish mumkin. Shu sababli, ushbu jarayonlar nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ekologik va ijtimoiy muvozanatni ham ta'minlashga qaratilgan yangi yondashuvlarni talab qildi. Sovet Ittifoqi esa ushbu talablarni o'z davrida anglay olmadi va bu esa og'ir ekologik va iqtisodiy oqibatlarga sabab bo'ldi.

XX asrning 50-yillari boshlarida sovet ma'muriyati O'zbekiston SSRda ilgari deyarli foydalanilmayotgan qo'riq va bo'z yerlarni qishloq xo'jaligi uchun moslashtirish va ayniqsa paxta ekinlarini ko'paytirish maqsadida keng ko'lamli ishlarni boshladi. Andijon oblastida ham bu ko'rsatmalarga muvofiq, hududdagi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish orqali paxta maydonlarini kengaytirish ishlari

olib borildi. 1951-yilga kelib, oblast hududidagi 44 ming gektar yerning meliorativ holati yaxshilandi [1. –B.189]. Shuningdek, 1951-yil oxirigacha O‘zbekiston SSR hududida 368 ming gektar yangi sug‘oriladigan yer tashkil etish vazifasi qo‘yildi, shundan 52 ming gektari aynan Andijon oblastiga xissasiga to‘g‘ri keldi [2; 222].

Sovet Ittifoqining 1951-yil 1-yanvardan 1955-yilning 31-dekabrigacha mo‘ljallangan beshinchi besh yillik rejasiga muvofiq, sobiq SSSR respublikalarida iqtisodiy ixtisoslashuv jarayoni yanada tezlashdi. Bu jarayonda O‘zbekiston ayniqsa paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilgan hududga aylantirildi. Natijada, qishloq xo‘jaligida paxta ekin maydonlarini kengaytirishga katta e‘tibor qaratilib, sabzavot, poliz, dukkakli va boshqa ekin maydonlari qisqartirildi. Paxtani yakkahokimligi siyosati amalga oshirilib, bu borada bir qator hukumat qarorlari qabul qilindi.

Besh yil davomida sug‘oriladigan yerlar maydonini 30–35 foizga kengaytirish, kolxoz va sovxozlarda 30-35 ming gektarga teng suv havzalari va suv omborlarini qurish, ularni samarali boshqarish va rejalashtirish ishlari ham asosiy vazifalar qatorida edi [3;725–727]. Shu munosabat bilan, 1952-yil 2-sentabrda SSSR Ministrlar Soveti irrigatsion-meliorativ tadbirlarga oid 3975-sonli qarorni qabul qildi. Bu qarorni bajarish uchun 1952-yil 16-sentabrda O‘zbekiston Kommunistik Partiyasi Markaziy Komiteti va O‘z SSR Ministrlar Soveti tomonidan “Markaziy Farg‘ona yerlarini o‘zlashtirish to‘g‘risida” kengaytirilgan qaror chiqarildi. Bu qarorda birinchi va ikkinchi navbatdagi yerlarni o‘zlashtirish, sug‘orish tizimlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha aniq amaliy vazifalar belgilandi. Xususan, birinchi navbatda Markaziy Farg‘ona vodiysining markaziy qismidagi 36 ming gektar yer o‘zlashtirilishi rejalashtirildi. Ushbu faoliyatlar 1953-yildan boshlab 1958-yilgacha davom ettirildi va natijada qishloq xo‘jaligida paxta etishtirish imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi [4;26]. Bularning barchasi sovet iqtisodiyotining xomashyo bazasini mustahkamlashga, shuningdek, qishloq xo‘jaligi sohasida barqaror va yuqori darajadagi samaradorlikka erishishga qaratilgan edi.

1953-yil mart oyida, yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish tizimlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni tashkil etish maqsadida, bosh pudratchi sifatida maxsus suv xo'jaligi qurilish tashkiloti – “Ферганаводстрой” tresti tuzildi. Ushbu trestning birinchi rahbari sifatida Ch.Sh.Aytmetov tayinlangan (1953–1954-yillar). Sug'orish ishlari bo'yicha esa Farg'ona Kolxozlararo soveti (rais Z.Ya.Fayzullaev) bosh buyurtmachi sifatida faoliyat yuritdi [5;9–14]. Mazkur sovet tarkibida yangi yerlarni sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha alohida 2 ta bo'lim tashkil etildi [6;20]. “Ферганаводстрой” qurilish tashkiloti “Андижанводстрой” trestining tashkil etilishiga qadar, Markaziy Farg'onadagi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish bo'yicha ishlarga rahbarlik qildi.

1954-yil 16-iyunda, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti va O'zbekiston KP Markaziy Komiteti tomonidan “Markaziy Farg'ona hududlarida yerlarni o'zlashtirish bo'yicha ish rejasi ijrosining borishi to'g'risida” nomli 620-sonli qaror qabul qilindi [7; 26]. Ushbu qarorda, Markaziy Farg'onada yerlarni o'zlashtirish ishlari qoniqarsiz darajada amalga oshirilgani qayd etilgan. 1954-yil 11-iyun holatiga ko'ra, o'zlashtirilishi rejalashtirilgan 14,5 ming gektar yangi va qo'riq ekin maydonlaridan faqat 8,8 ming gektar (61%) irrigatsion-meliorativ ishlari bajarilgan. Yangi kanallarda kerakli inshootlar qurilmagani sababli, yangi o'zlashtirilgan maydonlarni sug'orish uchun suvning yetarli darajada ta'minlanmasligi va sug'orish tizimlarida uzilishlar yuzaga kelgan.

“Ферганаводстрой” trestining (boshliq Ch.Sh. Aytmetov va bosh muhandis Shpotin) faoliyatidagi mas'uliyatsizlik va ishlarni yomon tashkil etish sababli, qurilish ishlari rejalashtirilgan vaqtda amalga oshirilmagan. Qaror bo'yicha, 1954-yilning to'rtinchi choragida qurilish-montaj ishlarining yillik rejasining 12,7% amalga oshirilganligi, jumladan, suv xo'jaligi qurilishi – 12,2%, yo'l qurilishi – 11%, uy-joy qurilishi – 13,5% va tuproq ishlari – 14,9% bajarilganligi qayd etildi. Shuningdek, 1954-yilning birinchi choragida kadrlar tayyorlanmasligi, texnik xizmatning etarli emasligi, va ekskavator, buldozer, skreper kabi zarur qurilma va mexanizmlar jalb etilmaganligi alohida ta'kidlandi.

1954-yil 29-sentabrda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan "Markaziy Farg'onada yangi va qo'riq yerlarni rejali o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilindi. Qarorda Farg'ona vodiysida 142 ming gektar yangi va qo'riq yerlarni tezkor tarzda o'zlashtirish uchun 1955-yil kuzida maxsus tayyorgarlik ishlari (irrigatsion-meliorativ, ekish, shudgorlash va yuvish)ni amalga oshirish zarurligi ko'rsatildi. Ushbu ko'rsatmalar O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi va Suv xo'jaligi ministrlilari hamda Andijon, Namangan va Farg'ona oblastlarining partiya komitetlariga yuklatildi.

Ko'rsatmalarga ko'ra, 1955-yil uchun ajratilgan yangi yerlarni ekish uchun tayyorlash hamda 1954-yilda bajarilmagan ishlarni hisobga olgan holda, 24,7 ming gektar yangi yer maydonini o'zlashtirish kerakligi belgilandi. Biroq, 1954-yil dekabr oyi holatiga ko'ra, Andijon oblastida 7,9 ming gektar yangi yerlar tayyorlanmadi, va yangi yilga qadar faqat 0,3 ming gektar yer tayyorlandi.

1954-yilning to'rtinchi choragi davomida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. 3227 ming m³ tuproq ishlari bajarildi, shundan 1720 ming m³ ekskavatorlar yordamida, 1507 ming m³ pritsepli mexanizmlar bilan ishlangan.

2. Qurilish inshootlari bo'yicha 5834 ming m³ beton ishlari amalga oshirildi.

3. "Ulug'nor-Baliqchi-Mazgil" loyihasi bo'yicha, "Ferganavodstroy" mexanizmlar yordamida 179 ming m³ tuproq ishlari bajarildi, 220 va 343-piketlarda ikki temir-beton ko'priklari qurildi, 420-piketda esa temir-beton ko'priklari o'rniga yog'ochdan yasalgan ko'priklari o'rnatildi. Qolgandaryo obekti bo'yicha, loyiha doirasida temir-beton ko'priklari o'rniga yog'ochli novlar o'rnatildi va temir-beton ko'priklari qurildi. Ulug'nor va Sariqjo'ga obektlarida 1748 ming m³ kollektor drenaj tarmog'ini barpo etish ishlari amalga oshirildi [8; 9].

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, Sovet Ittifoqi iqtisodiyotni tiklash va sanoatni kengaytirish maqsadida bir qator qishloq xo'jaligi siyosatlarini amalga oshirdi. Paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan ushbu siyosatlarning asosiy maqsadi, markaziy boshqaruvning yengil sanoat sohasining xomashyo talablarini barqaror va keng miqyosda qondirish edi. Paxta, Sovet Ittifoqining iqtisodiy

dasturlarida muhim o‘rin tutib, uning ishlab chiqarish hajmi doimiy ravishda oshirildi. Biroq, bunday siyosat natijasida ekologik muvozanatning buzilishi va tabiiy resurslarning haddan tashqari ishlatilishi ko‘zga tashlandi.

Paxtachilikning ekstensiv rivojlanishi tuproqning xosildorligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Uzoq yillar davomida intensiv qishloq xo'jaligi amaliyotlari, shu jumladan, kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlari ishlatish, tuproqning biologik faolligini kamaytirish va eroziyaga olib keldi. Paxtachilik maydonlarining kengayishi natijasida suv manbalarining o'zgarishi, tuproq tuzilishining buzilishi va yerning sho'rlanishi kabi salbiy ekologik oqibatlar yuzaga keldi.

Sovet davrida paxtachilikning rivojlanishi, ayniqsa Markaziy Osiyo mintaqasida, uzoq muddatli ekologik salbiy oqibatlar bilan birga kelgan. Bu jarayonning ekologik zararlari, bir tomondan, qishloq xo'jaligining rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan, ammo boshqa tomondan, tabiiy muhitning ta'sirlanishiga va uning barqarorligi va resurslarga bo'lgan ehtiyojiga jiddiy xavf tug'dirgan. Bunday holat, nihoyat, kelajakda o'tkazilgan ekologik tadqiqotlar va ijtimoiy-siyosiy tahlillar orqali hal qilishni talab qiladigan muammolarni keltirib chiqardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Насритдинов Қ. Фарғона водийсининг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.
2. О'з МА, R.2483-fond, 1-ro'yxat, 685-yig'majild.
3. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. В 5 т.: Сб. док. за 50 лет. Т. 3. 1941-1952 гг. – Москва: Политиздат, 1968.
4. Гофуров А. Ирригация ва мелиорацияни ривожлантиришнинг иқтисодий проблемалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974.
5. Рустамов А.Р. Центральная Фергана. – Ташкент: Мехнат, 1995.
6. Рузикулова М.Ю. Марказий Фарғона қўриқ ерларининг ўзлаштирилиши ва суғорилиши тарихи (XX асрнинг 50 – 70-йиллари мисолида): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2021. **Abduraxman Gulomjon o'g'li TURGUNOV**
mustaqil tadqiqotchi
Andijon davlat universiteti

7. FVDA, 1151-fond, 1-ro‘yxat, 12-yig‘majild.

8. FVDA, 711-fond, 1-ro‘yxat, 51-yig‘majild.